

O'zbekistondagi Sharda universiteti 2022/2023–o'quv yili uchun kuzgi qabulni boshladi

Andijon shahrida joylashgan Sharda University Uzbekistan 2019–yilda O'zbekiston prezidentining maxsus qarori bilan, Sharda Group kompaniyasining har bir talabaga dunyo standartidagi sifatli ta'lim berish majburiyatiga asosan tashkil etilgan. Hozirda vodiydagi Sharda universitetining birinchi offshor kampusida 95 dan ortiq mamlakatdan kelgan talabalar tahsil olmoqda.

SHARDA UNIVERSITY

UZBEKISTAN

SHARDA UNIVERSITETI
TALABASI BO'LING VA 50% GACHA
GRANTNI QO'LGA KIRITING

TELEFON
RAQAMLAR: 90 5271234, 90 1431234

| SHARDAUNIVERSITY.UZ

O'zbekiston Yevrosiyo mintaqasida rivojlanayotgan davlat. Shu bois, Hindistonning Sharda universiteti filiali O'zbekistonda faoliyat yuritib, nafaqat o'zbekistonlik talabalarga, balki qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston talabalariga ham xizmat ko'rsatadigan Yevrosiyodagi birinchi hind kampusi bo'lishni maqsad qilgan.

Sharda universitetida to'rtta fakultet mavjud:

- Asosiy fanlar fakulteti.
- Muhandislik va texnologiya fakulteti.
- Menejment fakulteti.
- Gumanitar fanlar fakulteti.

Universitet tomonidan taqdim etiladigan kurslar quyidagilardan iborat:

- Texnologiya bakalavri (informatika va muhandislik).
- Biznes boshqaruvi bakalavri.
- Amaliy ingliz tili bakalavri.

O'zbekistondagi Sharda universiteti qisqa vaqt ichida 400 dan ortiq talabaga zamonaviy ta'lim berishga ulgurdi. Universitet talabalari tajribali akademiklar va sanoat mutaxassislaridan iborat yetakchi professor–o'qituvchilar tomonidan o'qitiladi va global iqtisodiyotning murakkab talablariga javob berishga tayyorlaydi. Shuningdek, o'zgaruvchan dunyo iqtisodiyotiga moslashib kirib borishlari uchun talabalarda iqtisodiy global muammolarni hal qilish ko'nikmalari shakllantiradi.

Sharda butun dunyo bo'ylab 15 dan ortiq universitet va muassasalar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Universitetda talabalarga Germaniya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlariga borish imkonini beradigan “Work and travel” dasturi mavjud. Universitet nafaqat eng yaxshi ta'lim berishga, balki ijobiy ta'lim tajribasini taqdim etishga ham intiladi.

Sharda'da tadbirkorlik, investitsiya va savdoni rivojlantirish bo'yicha markaz tashkil etilgan. Universitetda shuningdek, Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'limi (SDC) mavjud bo'lib, unda talabalar keng doiradagi ilovalar uchun innovatsion dasturiy ta'minotni ishlab chiqadi.

Oliy ta'lim dargohida “Industry–connect” tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Bunda turli kompaniyalarning taniqli ma'ruzachilari universitet talabalari bilan suhbatlashib, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashmoqda. Universitetda Andijon va Farg'ona viloyatlarining xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda o'tkazilgan ilmiy olimpiadada 100 foiz, 75 foiz va 50 foizlik stipendiya uchun yuzlab talabalar ishtirok etdi.

Sharda universiteti stipendiyasi va kirish testi [SUSAT] uchun imtihonlar onlayn va oflayn rejimda o'tkaziladi. Bundan tashqari, talabalar xalqaro miqyosda tan olingan ingliz tilini bilish imtihonini tugatganlik sertifikatini taqdim etishlari yoki Shaxsiy intervyuga (PI) kelishlari kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun universitet veb–saytiga tashrif buyuring:
<https://www.shardauniversity.uz>

Reklama huquqi asosida.